

TA'LIMYIY DISKURSDA LINGVOMADANIY ME'YORLAR

Sh.Y. Bobojonova,

PhD, dotsent. Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent

shakhnoza.bobojonova@gmail.com.

orcid: 0009-0000-3204-345X

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy oliy ta'lim muhitidagi ta'limiy diskursning lingvomadaniy, pragmatik va xronotopik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ustoz–talaba muloqotida til birliklarining grammatik shakldan tashqari madaniy jihatlarini, ijtimoiy rol me'yorlari va an'anaviy kommunikativ usullar bilan uyg'un qo'llanishi ochib beriladi. Bunda ta'limiy diskursning qadriyat, me'yor va an'analarga tayanadigan lingvomadaniy tizim sifatidagi ahamiyatini hamda pedagogik muloqot samaradorligini oshirishdagi rolini ko'rsatadi.

Tayanch iboralar: ta'limiy diskurs; ustoz–talaba muloqoti; nutqiy aktlar; yumshatuvchi vositalar; madaniyatlararo muloqot; adresiv birliklar; qadriyat–me'yor–an'ana

Аннотация. В статье анализируются лингвокультурные, прагматические и хронотопические особенности образовательного дискурса в современной среде высшего образования. Раскрывается согласованное использование культурных аспектов языковых единиц помимо их грамматической формы в общении преподаватель–студент, в сочетании с нормами социальных ролей и традиционными коммуникативными практиками. Показано значение образовательного дискурса как лингвокультурной системы, опирающейся на ценности, нормы и традиции, а также его роль в повышении эффективности педагогической коммуникации.

Ключевые слова: образовательный дискурс; коммуникация преподаватель–студент; речевые акты; смягчающие средства (митигаторы);

межкультурная коммуникация; формы обращения (адресивные единицы); ценности–нормы–традиции.

Abstract. *The article analyzes the linguo-cultural, pragmatic, and chronotopic features of educational discourse in the contemporary higher-education environment. It shows how, in teacher–student interaction, the cultural dimensions of linguistic units beyond their grammatical form are applied in harmony with social-role norms and traditional communicative practices. The study also demonstrates the significance of educational discourse as a linguo-cultural system grounded in values, norms, and traditions, and its role in enhancing the effectiveness of pedagogical communication.*

Keywords: *educational discourse; teacher–student communication; speech acts; mitigating devices; intercultural communication; address forms; values–norms–traditions*

Kirish

Ta’limiy diskurs — bu ta’lim jarayonida yuzaga keladigan maxsus kommunikativ faoliyat turi bo‘lib, o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi) o‘rtasidagi nutqiy muloqotni, undagi ijtimoiy rollar, til vositalari, madaniy me’yorlar va maqsadlarni o‘z ichiga oladi.

Bu tushuncha nafaqat dars jarayonidagi nutqni, balki ta’limga oid barcha kommunikativ hodisalarni qamrab oladi: ma’ruza, seminar, imtihon, maslahat jarayoni, elektron yozishmalar, baholash va fikr-mulohazalar ham ta’limiy diskursning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ta’limiy diskursga doir nazariy yondashuvlar ichida V. I. Karasikning kommunikativ shaxs va diskurs tiplari haqidagi qarashlari muhim o‘rin tutadi [1]. Unga ko‘ra, ta’limiy diskurs institutsional diskursning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda ishtirokchilar o‘rtasidagi masofa, rol va vazifalar jamiyatning “ijtimoiy kutishlar tizimi” asosida shakllanadi; shu sababli siz–sen oppozitsiyasi, rasmiy etiketa formulalari va profes-sionallik markerlari o‘qituvchining institutsional statusini namoyon qiladi.

M. L. Makarov esa ta'limiy diskursni ko'p qatlamli sotsiolingvistik hodisa sifatida talqin qilib, undagi nutqiy birliklar har doim kommunikativ niyat, ijtimoiy rol va madaniy kontekst uchligida shakllanishini ta'kidlaydi; direktiv aktlarning yumshatilishi esa pedagogik etikaga tayangan holda yuzaga keladi [2].

N. D. Arutyunova diskursni jamiyatning “o'zi haqida o'zi bilan olib boradigan muloqoti” sifatida izohlab, ta'limiy diskurs aynan shu funksiyani bajarishini — jamiyat o'z qadriyat va me'yorlarini yangi avlodga til orqali uzatishini ko'rsatadi [3].

O'zbek tilshunosligida Sh.Safarov pedagogik muloqotni “madaniy aniqlangan nutqiy xulq” deb baholab, undagi lingvomadaniy skriptlar — ustozga hurmat, jamoaviylik, kattaga itoat — ta'limiy diskursni shakllantiruvchi asosiy omillar ekanini qayd etadi[4].

Ta'limiy diskurs — jamiyatning o'zini qayta ishlab chiqarish mexanizmlaridan biri bo'lib, unda bilimlar tizimi va axloqiy-me'yoriy ko'rsatmalar shaxsga shu qadar uyg'un va muvofiqlashtirilgan tarzda uzatiladiki, natijada yangi avlod ijtimoiy hayotning muhim rollarini egallashga tayyor bo'lgan yetuk subyekt sifatida shakllanadi[8]. Bu jarayon, tabiiy ravishda, bolalik davridan boshlab o'quvchi—o'qituvchi munosabatlari orqali, yoshlik bosqichida kasbiy tayyorgarlik davrida talaba—professor aloqalari shaklida, kattalikda esa qayta tayyorgarlik tamoyillari asosida uzluksiz davom etib boradi. Shu bois, ta'limiy muloqot faqat institutsional me'yorlar bilan chegaralanib qolmay, balki lingvomadaniy stereotiplar, milliy an'analar, marosimlar va ramziy me'yorlar orqali ham mustahkamlanib, pedagogik jarayonning kompleks kommunikativ tizimini tashkil etadi[7].

Mazkur tizimning markaziy komponentlaridan biri — ishtirokchilar va murojaat shakllarini belgilovchi status, masofa va yaqinlik munosabatlaridir. Chunki pedagogik nutqning odatiy ishtirokchilari — o'qituvchi/professor va talaba/o'quvchi — o'zaro muloqot jarayonida o'z rollarini, ijtimoiy mavqeini hamda mas'uliyat darajasini aynan lingvistik vositalar orqali namoyon etadi. O'zbek tilida “siz/sen” oppozitsiyasi ijtimoiy masofa va hurmat darajasini belgilovchi asosiy marker sifatida faol ishlatiladi: masalan, rivojlangan ierarxiya mavjud bo'lgan o'rta va oliy ta'lim

bosqichlarida ustozlar talabalarga odatda “siz” shaklida murojaat qilsa, kichik sinflarda iliqlikni kuchaytiruvchi qarindoshlik atamalari (“o‘g‘lim, qizim”) qo‘llanishi ham kuzatiladi; o‘quvchi esa o‘z navbatida “ustoz”, “domla”, “o‘qituvchi opa/aka” kabi hurmat unvonlari bilan javob berib, ijtimoiy ierarxiyani lingvistik jihatdan tasdiqlaydi.

Ingliz tilida esa murojaat tizimi maktab muhitida Mr./Ms. + familiya kabi rasmiy shakllarga tayanadi; universitet bosqichida Professor + familiya yoki, ayniqsa AQShdagi kamroq ierarxik muloqot an‘analarida, ism orqali murojaat etish amaliyoti keng tarqalgan bo‘ladi. Shu bilan birga, talaba–o‘qituvchi muloqotida hurmat va ehtiyotkorlikni ifodalovchi “Could you please...”, “Would you mind...”, “I was wondering if...” kabi konstruksiyalar yumshoq direktivlarning nutqiy akt sifatida ijtimoiy maqbulligini ta‘minlaydi. O‘zbek makonida esa familiyaga qo‘shilib aytiladigan “aka/opa” komponenti (“Karimov aka”) ijtimoiy yaqinlik va hurmatning bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi; talabalar tomonidan “Rahmat, ustoz” kabi minnatdorchilik formulalarining qo‘llanishi esa ta‘limiy diskursning madaniy prototiplariga asoslangan kommunikativ odat ekani bilan ahamiyatlidir. Shunday qilib, murojaat vositalari va masofa–yaqinlik munosabatlari o‘zbek va ingliz ta‘limiy diskurslarining lingvomadaniy xususiyatlarini yaqqol namoyon etibgina qolmay, balki pedagogik muloqot jarayonida institutsional rol, hurmat, mas‘uliyat va ehtiyotkorlik kabi ijtimoiy-pragmatik mezonlarning til orqali qanday kodlanishini ham ko‘rsatadi.

Xronotop: vaqt–makon, marosim va atributlar

Ta‘limiy diskursning xronotopi — dars jadvali, sinf yoki ma‘ruza zali, laboratoriya, kutubxona, ota-ona yig‘ilishi, tezis va bitiruv ishlari himoyasi kabi ijtimoiy jihatdan tan olingan kanonik vaqt–makon birliklari bilan belgilanadi. Aynan shu muhitda shakllanadigan verbal (nutqiy formulalar) va noverbal (intonatsiya, tana tili) belgilar tizimi pedagogik jarayonning izchil davom etishini ta‘minlaydi. Darsning boshlanishi va yakuni uchun xos bo‘lgan ritual formulalar (“Davomat!”, “Bugungi mavzu...”, “Savol bormi?”, “E‘tiboringiz uchun rahmat”) kommunikativ janrni signal qilish bilan birga, vaqtning strukturaviy chegaralarini belgilaydi. Imtihon janrida esa

intonatsiya, tana tili, rasmiy salomlashuv me'yorlari (ingliz tilida: "Good afternoon, Professor." / o'zbek tilida: "Assalomu alaykum, ustoz.") ham ijtimoiy masofa, ham ierarxiya darajasining ochiq ko'rsatkichiga aylanadi. Shu tarzda, makonning institutsional xarakteri va vaqtning ritmik ketma-ketligi pedagogik diskursning xronotopik asosini tashkil etadi.

Qadriyat–me'yor–an'ana uchligi: aksiologik qatlam

Ta'limiy diskursning aksiologik tizimi bir necha darajada materiallashadi va bu qatlamlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik diskursning ijtimoiy mohiyatini chuqurroq ochib beradi. Bir tomondan, umuminsoniy qadriyatlar — hayotga hurmat, bilimga intilish, mehnatsevarlik — ta'lim jarayonining universal ma'naviy poydevorini belgilaydi; ikkinchi tomondan, sivilizatsiyaviy qadriyatlar — keksalarga munosabat, ekologik ong va raqamli madaniyat kabi tamoyillar global jarayonlar bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Uchinchi darajada etnik-madaniy qadriyatlar — o'zbeklarda "ustozga hurmat", mehmondo'stlik; ingliz madaniyatida shaxsiy hayot daxlsizligi va navbat saqlash me'yorlari; ta'limiy diskursning etnomadaniy rangini shakllantiradi. To'rtinchi darajada guruh qadriyatlari — fakultet, sinf yoki ilmiy maktabga xos an'analar va ichki reglamentlar; beshinchi darajada esa individual qadriyatlar — o'qituvchi yoki talabaning nutq uslubi, didi va kommunikativ odatlari — diskursning mikroaksiologik qatlamini tashkil etadi.

Mazkur qadriyatlar me'yorlar orqali institutsional darajada qoidalashtiriladi: imtihon odobi, akademik halollik, plagiatning qat'iy taqiqi, baholash mezonlari kabi tartiblar ta'lim jarayonining normativ asosini yaratadi; an'analar esa ijtimoiy tajriba davomida o'z-o'zidan shakllanib, biroq ta'lim muassasalari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xulqiy namunalar sifatida mustahkamlanadi[8].

Xulosa

Ta'limiy diskursning lingvomadaniy, pragmatik va xronotopik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, pedagogik muloqot oddiy axborot almashinuvidan farqli ravishda, ijtimoiy rol, madaniy me'yor, qadriyat talablari va vaqt–makon tizimlari bilan murakkab tarzda shartlangan kommunikativ hodisadir. Bu jarayonning

har bir bosqichi — darsning boshlanishidan tortib baholash, maslahat, tanqid, rag‘batlantirish, marosimlar va elektron yozishmagacha — til vositalari, ijtimoiy skriptlar va institutsional an‘analarning uzviy hamkorligi asosida tashkil etilganligini namoyon qiladi. Aksiologik qatlamda esa umuminsoniy, sivilizatsiyaviy, etnik-madaniy, guruh va individual qadriyatlar ta’limiy diskursda turli darajalarda aks etib, ular me’yor va an‘analar orqali mustahkamlanadi; xususan, akademik halollik, baholash tartiblari, ustozga hurmat, konstruktiv fikr-mulohaza kabi qoidalar ta’lim jarayonining axloqiy asosini belgilaydi. Natijada direktiv, komissiv, ekspressiv va reprezentativ nutqiy aktlarning har biri tilning nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy va madaniy tartibni ishlab chiqarish vazifasini ham bajaruvchi mexanizmga aylanadi. Demak, ta’limiy diskursni lingvomadaniy va pragmatik jihatdan chuqur o‘rganish pedagogik jarayon sifatini oshirish, muloqotdagi uzilishlarni kamaytirish, madaniyatlararo kompetensiyani kuchaytirish hamda talaba va o‘qituvchi o‘rtasida konstruktiv, hurmatga asoslangan, samarali muloqot muhitini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, til birliklarining kontekstga mos tanlanishi, xushmuomalilik strategiyalarining ongli qo‘llanilishi va madaniy me’yorlarning hisobga olinishi ta’limiy diskursning kommunikativ samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. — Волгоград: Перемена, 2004. — 390 с.
2. Макаров М. Л. Основы теории дискурса. — М.: Гнозис, 2003. — 280 с.
3. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В. Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1999. — С. 136–137.
4. Сафаров Ш. Когнитив тилшуносликка кириш. — Тошкент: Fan, 2013. — 320 б.
5. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 1969. — 203 p.

6. Shakhnoza, B. (2024). Psycholinguistics and educational discourse. *American Journal of Philological Sciences*, 4(05), 200-204.
7. Raupova, L. (2011). Discursive interpretation of dialogic speech (on the example of polypredicative units). *Monograph. Academy of Sciences of Uzbekistan "Science*
8. Kizi, B. S. Y. (2023). Discourse and its interpretation in modern linguistics. *International Journal of Pedagogics*, 3(11), 146-148.

